

**NUQSONLI RIVOJLANAYOTGAN BOLALARING MURAKKAB
STRUKTURASINI ÒGANISHNING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI.**

Isomitdinova Shaxinabonu Zavqiddin qizi

JDDU Maxsus pedagogika kafedrasи Logopediya yo'nalishi 510-21-401-guruh talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda turlicha uchraydigan nuqsonlar yuzasida olimlarning fikrlari ,ilmiy izlanishlari, olib borgan tadqiqotlar haqida va nuqsonli rivojlanayotgan bolalarning murakkab strukturasini òganishning ilmiy-metodologik asoslari haqida yoritib beriladi.

Kalit sózlar: L.S.Vigotskiy, birlamchi nuqson , ikkilamchi nuqson, mujassam nuqson, bolalar serebral falaji, pedagogik yordam, intellekt, maxsus ta'lif tizimi, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar.

Maxsus pedagogikaning butun rivojlanish tarixida rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ta'lif va tarbiyasi muammolarini o'r ganish muhim o'r in egallaydi.Inson psixikasi yagona murakkab tizim sifatada shakllanadi va uni tashkil etuvchi barcha bo'g' inlari o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda faoliyat yuritadi.Nuqsonga ega bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishi haqida ko'rib chiqilgan qarashlar asosida L.S.Vigotskiy tomonidan tavsiflangan qonunlar yotadi. L.S.Vigotskiyning qonunlariga ko'ra, nuqsonda mavjud qaysidir anlizator yoki intellektual buzilish nafaqat, alohida bitta faoliyatga tushadi, balki, qator o'zaro bog'liq buzilishlarga olib keladi, natijada, o'ziga xos , boshqacha rivojlanish namoyon bo'ladi. Nuqsonli rivojlanish tizimining murakkabligi biologik omillar sababli kelib chiqadigan birlamchi nuqsonga va birlamchi nuqson oqibatida kelib chiqadigan ikkilamchi nuqsonlarga bog'liq. Bunday nuqsonga ega bolalarning rivojlanish jarayoni faqatgina, u yoki bu patologiyaga sabab bo'luvchi keltirib chiqaruvchi barcha omillarni ochib bergandagina to'g'ri bo'lishi mumkin. Bunda birlamchi nuqson xarakterini va uni ikkilamchi nuqsonni keltirib chiqarishdagi xususiyatlarini aniqlash muhim, chunki, bu o'z navbatida keyinchalik bolaning o'ziga xos psixik rivojlanishini belgilaydi.

Nuqsonni paydo bo'lish vaqtি birlamchi ahamiyatga ega. Nuqsonni erta paydo bo'lishi, ikkilamchi nuqsonni og'ir bo'lishiga sabab bo'ladi, bu bolaning butun psixik rivojlanish yo'lini buzadi. Masalan, erta yoshdagи karlik, kech karlikdan farqli o'laroq, nutqning yo'qligiga va nutqning to'liq rivojlanmasligiga olib keladi.

Bolaning psixik rivojlanishini belgilovchi muhim omillardan biri, nuqsooni namoyon bo'lish darajasi hisoblanadi: birlamchi nuqson qanchalik chuqur va keng tarqalgan bo'lsa, ikkilamchi va uchlamchi buzilishlar shunchalik og'ir bo'ladi. Har qanday bolaning rivojlanish tizimi, shuningdek, nuqsonga ega bo'lgan bolalarning rivojlanish tizimi ham, uning psixikasi va shaxsi shakllanayotgan tarbiya shariotiga, ijtimoiy omillar majmuiga bog'liq. Noqobil tarbiya sharoiti, nuqsonni kuchaytirishi mumkin, aksincha ijobiy tarbiya sharoiti birlamchi nuqson oqibatlarini ma'lum darajada oldini olishi va paydo bo'lgan nuqsonlarni bartaraf etishi mumkin.

Shunga asoslanib ta'kidlash mumkinki, psixik yoki jismoniy nuqsonlarga ega bo'lgan - eshitish, ko'rish, nutq, harakat - tayanch apparati tizimining buzilishga ega bo'lgan) bolalar haddan tashqari murakkab tizimga ega bo'lib, bu organizm va psixikaning shakllanishiga ko'p qirrali o'zaro ta'sirini belgilaydi.

Turli nuqsonlarga ega bolalarning o'ziga xos rivojlanishini to'g'ri tushunish birlamchi nuqsonning keltirib chiqaruvchi sabablar, ularning tarqalishi haqidagi bilimlarga asoslanadi, chunki, aynan shu omillar o'ziga xos klinik namoyon bo'lishini belgilaydi.

Bola rivojlanishidagi muammolarga turli tomondan ko'rib chiqish zarur bo'lgan ko'pgina sabablar bo'lishi mumkin: nuqsonni paydo bo'lish vaqt - homidladorlikdagi rivojlanish (prenatal davr), tug'ruq davri (natal), tug'ruqdan keyingi (postnatal davr); uning namoyon bo'lish darajasi, nuqson xarakteri va chuqurligi, organik (MNS jarohatlanishi) va funksional (ijtimoiy-pedagogik qarovsizlik, hissiy zo'riqish va boshqalar) sabablar .

Buzilgan faoliyatlarni korreksiyalashga yo'naltirilgan tibbiy va pedagogik-psixologik tadbirlarni asoslash uchun nuqsonning namoyon bo'lishi, uning og'irlik darajasi sabablarini aniqlash va nuqson tuzilishining tibbiy - psixologik taxlili zarur.Ba'zi nuqsonlarning tuzilishi haqidagi ko'rgazmali tasavvurlar sxemasi 1 - rasmda keltirilgan.

Nuqsonli rivojlanishning murakkab tizimi haqidagi nazariy qonuniyat nuqson haqidagi umumiy tushunchalarni aniqlashtiradi va asoslaydi. Bunda har bir anomal rivojlanish ma'lum tizimli hodisalar bilan xarakterlanadi, ular ichidan murakkab tizimga ega birlamchi va ikkilamchi nuqsonlar ajratiladi.

Rivojlanishida kompleks nuqsonlarga ega bo'lgan bolalarning ta'limi uchun maxsus tizimni ishlab chiqish zarurati - bu toifa bolalarning kam emasligidan dalolat beradi. "Rivojlanishida mujassam nuqsonga ega bo'lgan bolalar oz - bu stastistik tomondan kam o'rganilgan anomal bolalar toifasidir,- deyiladi. Shu bilan birga malakali amaliyotchi-defektologlarning kuzatishlari va tadqiqotlariga ko'ra, bu bolalar maxsus muassasalar kontinigentining o'rtacha 40% ini tashkil etadi".

Ushbu muammo bo'yicha birinchi ishlarning chop etilganidan buyon (A.V.Aprashuev, G.P.Bertin, I.A.Lukashova, A.I.Mesheryakov, M.S.Pevzner, T.V. Rozanova, I.A.Sokolyanskiy, M.G.Xvatsev va boshqalar), anchagina yangi ma'lumotlar to'plandi.

Shuningdek, barcha ma'lumotlar ikki va undan ortiq nuqsonga ega bo'lgan bolalarga yordam berish va ularni qo'llab-quvvatlash shakllarida, pedagog-amaliyotchilarining ishlarini sezilarli darajada qiyinligi haqidagi ma'lumotlarga mos keladi. Keyingi yillardagi turli ta'lim va fan sohalaridagi o'zgarishlar maxsus pedagogikani ham chetlab o'tmadid. Shunga ko'ra, hali pedagoglar va ota-onalar, shuningdek, jamiyat tomonidan yetarlicha to'liq anglanmagan dolzarb muammolar yuzaga chiqdi. Aytilganlarni mujassam nuqsonga ega bo'lgan bolalarga pedagogik yordam ko'rsatish muammosiga ham to'liq taalluqli, deyish mumkin.Bu muammoga oydinlik kiritishga harakat qilamiz. Eng avvalo, "pedagogik yordam" atamasining lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratamiz.

S.I. Ojegovaning (1952) lug'atiga ko'ra, "pedagogik" demak, pedagogika talablariga mos - ta'lim va tarbiya haqidagi fan; "yordam", bu - kimgadir nimadir bilan yengillik

keltirish uchun ta'sir etish. Ma'lumki, "pedagogik yordam" – bu bolani individual rivojlanishini ta'minlovchi muhim faoliyat. Biz pedagogik faoliyatga ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatlardan biri sifatida qaraymiz, chunki, bola shxsini shakllantirishda maxsus tashkil etilgan shariot yaratish orqali unga malaka namunalari, ijtimoiy hulq-atvor meyorlari, pedagog bilan birgalikdagi faoliyatda beriladi. Mujassam nuqsonga ega bo'lgan bolalar ta'lim va tarbiyasidagi pedagogik faoliyatning o'ziga xosligi, nuqsolarning xilma-xilligi, ularni qo'shilib kelishi, bu nuqsonlarni yumshatish, bartaraf etishni ko'zda tutuvchi korreksiya va konpensatsiya vositalarini amalda qo'llanilishi bilan belgilanadi.

Pedagogik yordam rivojlanishida mujassam nuqsonga ega bo'lgan bolaning muammosidan kelib chiqadi va "alohida yordamga muhtoj shaxslarni turli yosh bosqichlarida, jamiyatning turli sohalarida va ijtimoiy institutlar va ijtimoiy yordam va tarbiyalashning barcha subyektlari ishtirokida shaxs rivojlanishining o'ziga xosligini hisobga olgan holda, ijtimoiy tarbiyanı maqsadli tashkil etilgan ajralmas jarayoni" sifatida belgilangan ijtimoiy –pedagogik faoliyat sifatida amalga oshiriladi.

Ko'r-kar bolalarga nisbatan korreksion-pedagoik ishlar bo'yicha anchagina malakalar to'plangan. Aniq, ilmiy asoslangan va eksperimental tekshirilgan ko'r-kar bolalarni o'qitish texnologiyasi bolalarning kompensator imkoniyatlarini ilk yosh bosqichlaridanoq ochish imkonini beradi. Ammo , hozirgi vaqtida bu toifa bolalar xususiyatlarining xilma-xilligi bilan farq qiladi, bu esa, murakkab nuqsonga ega bo'lgan bolalarning har bir guruhiiga ta'lim va tarbiya uchun asoslangan dastur va ishlanmalarni talab etadi.

Rivojlanishida mujassam nuqsonga ega bo'lgan bolalar turli maxsus muassasalarga tushib qolishadi, bu pedagogik ishlar mazmunini belgilash bilan bog'liq katta muammolarni paydo bo'lishiga olib keladi. Bunday bolalarni o'qitishda yetakchi nuqsonnigina hisobga olish, har tomonlama yetarli va to'liq ta'limni ta'minlay olmaydi.

Umumta'lim Davlat standartlariga (1999) ko'ra, imkoniyati cheklangan mujassam (murakkab) nuqsonga ega bo'lgan bolalar ta'limi farqli (differensial) amalga oshiriladi.Unda eshitmaydigan bolalar ichida, kar bolalarga mo'ljallangan dastur asosida o'qiyotgan bolalar ichida psixofizik rivojlanishida qo'shimcha nuqsonlarga ega bo'lgan (birlamchi nuqsonlar bilan birga harakat, ko'rish nuqsonlarini birga kelishi, ruhiy rivojlanishning orqada qolishi, aqli zaiflik va boshqalar) bolalar bo'lmasligi ko'rsatilgan. Amaldagi qonunlarga ko'ra, murakkab nuqsonli bolalar uchun yordamchi sinflar, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar sinflari, kar-ko'r bolalar va boshqalar uchun sinflar tashkil etilgan. Ta'lim kam sonli bolalar bilan, maxsus dastur asosida olib boriladi va alohida yakka yondoshuvni talab etadi. Asosiy guruhlarga ikkita birlamchi nuqsonlar qo'shilib kelgan eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ajratiladi: karlik va aqli zaiflik, karlik va ruhiy rivojlanishning sustlashganligi. Tibbiy tashxis va pedagogik xulosalar mos kelganda, aqli zaif, zaif eshituvchi bolalar zaif eshituvchi bolalar uchun mo'ljallangan bolalar mакtabidagi yordamchi sinflarga qabul qilinishi mumkin. Ko'r va zaif ko'ruvchi aqli zaif, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar maxsus sinflarda o'qitilishi mumkin. Sinflar tibbiy – pedagogik - psixologik kommissiya (TPPK) xulosasiga ko'ra komplektlanadi.

Turli darajadaga aqli zaiflikka ega serebral falajli (BSF) bolalar turli shaklda tashkil etiladigan ta'lism shakli va turli darajadagi dasturlarni ishlab chiqilishini talab etadi. Asosiy e'tibor korreksion tizim fanlariga qaratilishi kerak. Eshitishi va ko'rishi turli darajada buzilgan BSF bolalar to'g'ri tashkil etilgan ta'lism shakllari, maxsus o'quv rejalarini va dasturlarini talab etadi (maxsus bo'limlar, sinflar, maktab, internat qoshidagi guruhlar).

Murakkab nuqsonga ega bolalar, masalan, zaif eshituvchi yoki zaif ko'rurvchilikka ruhiy rivojlanishi sustlashganlik, aqli zaiflik qo'shilib kelganda, tayanch-harakat apparati buzilishi bilan birga alaliya, afaziya, rinolaliya, og'ir darajadagi dizartriya bilan aziyat chekayotgan bolalar mutahassislar bilan ta'minlangan, texnik sharoit yaratilganda, tibbiy xulosalarga ko'ra, yakka dasturlar asosida to'liq yoki qisman ta'limga o'quvchilar jamoasiga qo'shilishi mumkin. Integratsiya darajasi, uning shakli va davomiyligi shifokor, psixolog, o'qituvchi-logoped, defektolog va maktab uslubchilari maslahatlariga ko'ra belgilanadi.

Yuqorida aytilganlarni hisobga olib, rivojlanishida murakkab nuqsonga ega bo'lgan bolalarni metodologik o'rganish turli ilmiy sohalar bilan bog'lqlikda kechadi: psixologiya, pedagogika, tibbiy sohadagi qator fanlar, ijtimoiy pedagogika. Bolalarga ta'limiylar va tarbiyaviy yordam yagona pedagogik jarayonning tarkibiy qismi hisoblanib, ta'lim va tarbiya metodlari, shakllari, vazifalari va maqsadini belgilovchi umumiy pedagogika bilan uzviy bog'liq. Shu bilan birga, umumiy pedagogikadagi ilmiy asoslarni rivojlanishida mujassam nuqsonga ega bo'lgan bolalarga pedagogik yordam ko'rsatish jarayonida qo'llash aniq metodikalar, ta'lim texnologiyalari va mazmuni nuqson tabiatini hisobga olgan holda, qayta tuziladi, maxsus pedagogikaning turli sohalarida – tiflopedagogika, surdopedagogika, logopediya va olgfrenopedagogikada mavjud metodikalar va korreksion ta'sir metodlari takomillashtiriladi, yangi usullar ishlab chiqiladi.

Umumiy va maxsus psixologiyadan asosiy bilimlar nuqson tabiatini, bolani ruhiy rivojlanishi qonuniyatarini ochib berishga, mujassam nuqsonga ega bo'lgan bolalarni individual tarbiyasi va farqlangan ta'limiini tashkil etishga yordam beradi.

Mujassam nuqson asosida markaziy nerv tizimining (MNS) jarohatlanishi, sensor sohalarning buzilishi, shuningdek, turli genetik omillar yotar ekan, ularni tushunish va hisobga olish uchun tibbiyotning turli sohalari - nevropatologiya, bolalar anatomiysi va fiziologiyasi, psixopatologiya, psixiatriya, odam genetikasi, oftalmologiya, foniatriya, otoriolaringologiya, surdodlogiya, pediatriya, ortopediya va boshqa sohalari bo'yicha ma'lum bilimlar talab etiladi.

Ijtimoiy fanlar bilan ham uzviy aloqa kuzatilib, u butun hayotiy hodisalarni kechishi darajasini va insonni rivojlanishini to'liq qamrab oladi. Umumiy maxsus ta'limga nisbatan rivojlanishida mujassam nuqsonga ega bo'lgan bolalarning korreksion-pedagogik ta'limga tarbiyasi qator sifatlarga ega integrallashgan kichik tizim hisoblanadi: uni tashkil qiluvchi elementlarni birligi va to'liqligi, ko'p modullilik, ma'lum o'zgaruvchanligi.

Hozirgi vaqtida rivojlanishida mujassam nuqsonlarga ega bo'lgan bolalarga yordam ko'rsatish rivojlanish bosqichida. Ammo u, maxsus korreksion muassasalarda, turli dasturlar, turli ta'limga boshqaruva organlari boshchiligidagi va metodik, meyoriy materiallarga tayanib amalga oshirilmoqda.

Rivojlanishida mujassam nuqsonlarga ega bo'lgan bolalarni o'qitish sohasi yo'nalishidagi ilmiy vazifalar quyidagi asosiy muammolarni qayta ishslash hisoblanadi:

- rivojlanishida mujassam nuqsonlarga ega bo'lgan shaxslarni xar tomonlama psixologo-pedagogik va klinik o'rganish;
- rivojlanishdagi jismoniy, psixik buzilishlarni va analizatorlar faoliyatidagi nuqsonlar xususiyatlarini aniqlash va belgilash;
- mujassam nuqsonlarga ega bolalarning ta'lif va tarbiyasidagi obyektiv qonuniyatlarni o'rganish;
- maxsus tashkil etilgan ta'lif va tarbiya jarayonining kompleks tizimini ishlab chiqish va ilmiy asoslash;*
- ta'dim mazmunining ilmiy asoslarini (o'quv dasturi, uquv reja) ishlab chiqish, uning metodlari va tamoyillarini belgilash.

Asosiy e'tibor rivojlanishida kompleks nuqsonga ega bo'lgan bolalarning kompensator imkoniyatlarini kengaytirishga mo'ljallangan maxsus texnik vositalarni yaratilishiga qaratilishi kerak.

Murakkab nuqsonlarning o'ziga xosligi, ko'rish, eshitish, intellektual yetishmovchilik, tayanch-harakat apparati tizimining buzilishi, nutqiylarini qo'shilib kelishi butun differensal ta'lif va tarbiya jarayonida chuqr ilmiy asoslanishni talab etadi.

Bunday bolalarning rivojlanishini har tomonlama o'rganish bolalarni turli toifalarga , bolalarni alohida guruhlar va sinflarga ajratish tamoyillarini , shuningdek, korreksion – pedagogik ishlarning ancha mahsuldor yo'llarini aniqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÓYXATI:

1. Nurkeldiyeva D.A., Ayupova M.Y., Ahmedova Z.M. Barmoqlar mashqi va logopedik o'yinlar. - T.: Yangi asr avlod, 2007
2. Волкова Г.А. Логопедическая ритмика. - М.: Просвещение, 2003.
3. Дякова Е.А Логопедический массаж. - М.: Академия, 2003
4. Axmedova Z., M.Ayupova, M.Xamidova. Logopedik o'yin, - T.: Файласуфлар, 2013
5. Ayupova M.Yu. Logopediya. – Т.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2007
6. Defektologicheskiy slovar. M., Pedagogika, 1970
7. Oilada serebral falaj bo'lgan ilk yoshdagи bolalar bilan olib boriladigan korreksion pedagogik ishlar. RTM, T., 1998
8. Shipisyina L.M.Zashyeujnskaya O.V i dr. Azbuka obshyeniya SPb. 1998..
- 9.V.A.Lapshin, B.P.Puzanov. Osnovi defektologii. M., Prosvesheniye, 1990
- 10.A.I.Mesheryakov. Slepogluxonemiye deti. M.,1974
- 11.K.A.Semyonova, M.M.Maxmudova. Meditsinskaya reabilitatsiya i sotsialnaya adaptatsiya bolnykh detskim serebralnim paralichem. T., 1979
- 12.L.O.Badalyan, L.T.Jurba, O.V.Timonina. Detskiy serebralniy paralich. Kiyev, Zdorovye, 1988

13.G.V.Dedyuxina, L.D.Moguchaya, T.A.Yanishena. Logopedicheskiy massaj i lichebnaya fizkultura s detmi 3-5 let, stradayushimi detskim serebralnim paralichom. M., Gnom-Press, 1999